

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 121 (1720), 2026-yil 17-iyun, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON – ALBANIYA: KENG QAMROVLI MUNOSABATLARNING YANGI DAVRI BOSHLANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay rafiqasi hamrohligida rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi.



Shu munosabat bilan Ko‘ksaroy qarorgohida Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begayni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi. Qarorgoh oldidagi maydonda faxriy qorovul saf tordidi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy kutib olib, shohsupaga taklif qildi.

Harbiy orkestr ijrosida O‘zbekiston va Albaniya davlat madhiyalari yangradi.

Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

O‘zbekistondagi islohotlar dunyo mamlakatlari, yirik xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy tuzilmalar hamda yirik sarmoyadorlar qiziqishini oshirmoqda. Poytaxtimiz mezbonlik qilayotgan navbatdagi katta anjuman — V Toshkent xalqaro investitsiya forumi esa hamkorlikni

mustahkamlashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir. 2022-yildan buyon tashkil etib kelinayotgan ushbu yirik anjuman o‘tgan vaqt mobaynida mamlakatimizning investitsiyaviy salohiyatini keng namoyon etish, xorijiy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli loyihalarni shakllantirish va ilgari surish uchun muhim xalqaro maydonga aylanib ulgirdi.

[Davomi 2-beta](#)

TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI DOIRASIDAGI SAMARALI MULOQOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin, Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov va Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchinni qabul qildi.



Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Tovar ayirboshlash barqaror o‘zib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan buyon uning hajmi 20 foizga oshdi. Energetika, metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa ustuvor tarmoqlarida yirik loyihalarni amalga oshirish davom etmoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish sur‘atini saqlab qolishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish hamda

sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston yetakchisi hududlar darajasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish hamda madaniy va ta‘lim almashinuvi dasturlarini ilgari surish muhimligini ta‘kidlandi.

[Davomi 2-beta](#)

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI MALAYZIYA BOSH VAZIRI BILAN UCHRASHUV O‘TKAZDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda to‘xtab o‘tgan Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrahim bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Samimiy muloqotda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, ularni amaliy mazmun bilan boyitish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Oliy darajadagi o‘zaro tashriflar natijasida mamlakatlarimiz hamkorligi mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Xususan, yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga o‘tdi, qo‘shma korxonalar soni esa 50 taga yetdi. Turli darajalarda faol muloqotlar davom etmoqda.

Davlatimiz rahbari ayni kunlarda O‘zbekistonda bo‘lib turgan Malayziyaning “Petronas” korporatsiyasi delegatsiyasi bilan muzokaralarning ahamiyatiga to‘xtalib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida strategik loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish zarurligini qayd etdi.

Jumladan, neft-kimyoy, yuqori texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, farmatsevtika va boshqa ustuvor sohalardagi loyihalarni ilgari surishga e‘tibor qaratildi.

Muloqot davomida islom moliyasi, hududlararo aloqalar, ziyorat turizmi, to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar sonini oshirish hamda madaniy almashinuvlar yo‘nalishlaridagi hamkorlik istiqboliga ham to‘xtalib o‘tildi.

Xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrahimni O‘zbekistonga alohida tashrif bilan kelishga taklif qildi.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON – AQSH: INVESTITSIYAVIY HAMKORLIKNING ASOSIY YO‘NALISHLARI BELGILAB OLINDI

Toshkent xalqaro investitsiya forumi tadbirlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Eksimbanki prezidenti va raisi Jon Yovanovich hamda Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh ijrochi direktori Ben Blek bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmonlar davlatimiz rahbariga AQSH Prezidenti Donald Trampning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Muzokaralar davomida mazkur institutlarning O‘zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish, muhim minerallarni o‘zlashtirish, energetika, sun‘iy intellekti joriy etish hamda raqamlashtirish kabi yuqori texnologiyali strategik loyihalarni moliyalashtirishda ishtirok etishi bilan bog‘liq masalalar atroficha ko‘rib chiqildi.

AQSH Eksimbanki bilan hamkorlik yo‘nalishida energetika tarmog‘ini modernizatsiya qilish bo‘yicha qo‘shma

loyihalarni jadallashtirish yuzasidan kelishuvga erishildi. Mahalliy tadbirkorlarning ustuvor sohalardagi tashabbuslari uchun eksport kreditlarini taqdim etishni yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

“DFC” korporatsiyasining sog‘liqni saqlash sohasidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, energetika tarmog‘i va infratuzilmani modernizatsiya qilishga qaratilgan qo‘shma investitsiya platformasini ishga tushirish bo‘yicha tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi.

Toshkentda yangi xalqaro aeroportni qurish, Farg‘ona viloyatida zamonaviy tibbiyot majmuasini tashkil etish, raqamli bankni ishga tushirish, data-markazlar

va quruq portlarni barpo qilish kabi yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishning amaliy bosqichiga o‘tish zarurligi ta‘kidlandi.

Uchrashuv yakunida muhokama qilingan investitsiyaviy va texnologik loyihalarni ilgari surish bo‘yicha qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSHning yetakchi kompaniyalari delegatsiyasi bilan ham uchrashdi.

Uchrashuvda AQSH Eksimbanki prezidenti va raisi Jon Yovanovich, Xalqaro moliyaviy taraqqiyot korporatsiyasi (DFC) bosh ijrochi direktori Ben Blek, AQSH —

O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm hamda “Air Products”, “Cove Capital”, “Templeton Global Investments”, “Boeing”, “77 Construction”, “BlackRock”, “FLS”, “Visa”, “JP Morgan”, “Meta”, “GULF” korporatsiyalari rahbarlari va yana bir qator kompaniyalar vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari mazkur uchrashuv oxirgi yillarda vujudga kelgan yaxshi an‘ananing davomi, AQSH ishbilmonlarining O‘zbekistondagi faoliyatini kengaytirishga qiziqishi ortib borayotganining tasdig‘i ekanini mamnuniyat bilan qayd etdi.

[Davomi 2-beta](#)

O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA: O‘ZARO MANFAATLARGA ASOSLANGAN ALOQALAR IZCHIL RIVOJLANMOQDA

17-18-iyun kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga keladi.

O‘zbekiston va Germaniya barqaror siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va gumanitar hamkorlikni mustahkamlashga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarni izchil rivojlantirib



bormoqda. Xalqaro jarayonlarning jadal o‘zgarishi va davlatlarning o‘zaro bog‘liqligi ortib borayotgan hozirgi sharoitda Toshkent va Berlin o‘rtasidagi sheriklik tobora tizimli va ko‘p qirrali tus olmoqda.

Germaniya 1991-yil 31-dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo‘lib tan olgan. Ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar esa 1992-yil 6-martda o‘rnatilgan. O‘tgan davrda siyosiy, iqtisodiy, investitsiyaviy, ta‘lim va madaniy-gumanitar sohalarni qamrab oluvchi hamkorlikning mustahkam institutsional paydoverti shakllandi.

[Davomi 2-beta](#)



SINOVLARDA TOBLANGAN
AVLOD – YURT TAYANCHI

6



O'ZBEKISTON – ALBANIYA: KENG QAMROVLI MUNOSABATLARNING YANGI DAVRI BOSHLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Albaniya Prezidenti Bayram Begayning mamlakatimizga rasmiy tashrifining mazkur xalqaro forum kunlariga to'g'ri kelgani ham ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash uchun ayni muddaddir.

Bolqon yarim orolining janubi-g'arb qismida joylashgan Albaniya iqtisodiyotida oziq-ovqat, yengil sanoat, konchilik va yog'ochsozlik tarmoqlarining salmog'i katta. Neft, xrom, mis rudalari, bitum qazib olinadi. Qishloq xo'jaligi ham ancha rivojlangan. Bular esa ushbu tarmoqlarda yangi tashabbus va loyihalarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Bayram Begayning rasmiy delegatsiyalar ishtirokida bo'lib o'tgan muzokaralarida ushbu jihatlar qayd etildi. Ikki davlat o'rtasida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari O'zbekiston va Albaniya munosabatlari tarixida ilk bor o'tkazilayotgan ushbu sammit alohida ahamiyatga ega ekanini, ikki tomonlama hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishini ta'kidladi.

Siyosiy muloqot va turli darajadagi aloqalar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. BMT va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida tomonlar bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Tovar ayirboshlashni kengaytirish, agrosanoat majmui, "yashil" energetika, geologiya, axborot texnologiyalari va raqamlashtirish, turizm hamda boshqa muhim sohalarda keng ko'lami kooperatsiya dasturini tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston mahsulotlarini Janubiy Yevropa va O'rta yer dengizi bozorlariga chiqarishda logistika xabi sifatida Albaniyaning Durres portidan foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi.

Iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning huquqiy asoslarini kengaytirish muhimligi alohida ta'kidlandi.

Hamkorlikning iqtisodiy kun tartibini ilgari surish maqsadida hukumatlararo komissiya tashkil etish va uning birinchi yig'ilishini joriy yilda Toshkent shahrida o'tkazishga kelishib olindi.

Madaniy-gumanitar sohada o'zaro madaniyat kunlari, kino namoyishlari, ko'rgazma va ijodiy safarlarni tashkil etish muhimligi aytiladi.

Boshlanishi 1-betda

Oliy darajadagi muntazam muloqotlar O'zbekiston — Germaniya munosabatlari faollashtirishda muhim o'rinni tutadi. 2019-yil yanvar oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniyaga rasmiy tashrif buyurdi. Tashrif davomida Berlinda Federal Prezident Frank-Valter Shtaynmayer, Federal Kansler Angela Merkel va Bundestag rahbariyati bilan uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida investitsiya, moliya, fan, ta'lim va madaniyat sohalarida salmoqli bitimlar to'plamini imzolandi.

Oradan to'rt oy o'tib, ya'ni 2019-yil 27-29-may kunlari Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning O'zbekistonga javob tashrifi bo'lib o'tdi va bu ikki tomonlama muloqot rivojida muhim bosqich bo'ldi. Oliy darajadagi muzokaralarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, ta'lim va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 2-3-may kunlari Germaniyaga rasmiy tashrifi o'zaro hamkorlikka yangi sur'at bag'ishladi. Tashrif yakunida ikki mamlakat o'rtasidagi sheriklikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi. O'zbekiston rahbarining o'sha yil sentabr oyida "Markaziy Osiyo — Germaniya" formatidagi birinchi sammitda ishtirok etish uchun Germaniyaga tashrifi jadal siyosiy muloqotning davomi bo'ldi. Tashrif doirasida Germaniya Federal Prezidenti va Federal Kansleri bilan muzokaralar o'tkazildi, shuningdek, Germaniya iqtisodiyotining Sharqiy qo'mitasi tomonidan tashkil etilgan biznes-forumda qatnashildi.

Germaniya Federal Kanslerining 2024-yil sentabr oyida O'zbekistonga rasmiy tashrifi ikki tomonlama muloqotni rivojlantirishda muhim voqea bo'ldi. Oliy darajadagi sammit chog'ida tomonlar ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarni muhokama qildi, shuningdek, hamkorlikni yanada kengaytirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab oldi.

2019-yil yanvar oyida tegishli parlamentlararo hamkorlik guruhlari o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolashni O'zbekiston va GFR o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlikni institutsionallashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Germaniya Bundestagida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik bo'yicha parlament guruhi, O'zbekiston Oliy Majlisida

Yetakchilar mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev va Bayram Begay Faxriy mehmonlar xiyobonida birgalikda daraxt ekdi.

Ushbu marosim ikki mamlakat xalqlari o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuv mustahkamlanib borayotgani, O'zbekiston — Albaniya ko'p qirrali munosabatlari rivojlantirishda yangi bosqich boshlanganining o'ziga xos ramzi bo'ldi.

Oliy martabali mehmon rafiqasi hamrohligida shu kuni "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo'ydi.

Qadimiy shahar Samarqand har doim hammaning e'tiborida bo'lib kelgan. Sharqning qo'zal va gavhar shahri eshiklari mehmonlar uchun hamisha ochiq. Qadimiylik va zamonaviylik uyg'unlashgan Samarqandda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar, ajdodlarimiz merosini asrash borasida qilinayotgan ishlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Xorijliklarni jalb qilayotgan jihatlardan biri ham aynan shu.

Albaniya Prezidenti Bayram Begay poytaxtdagi oliy darajadagi muzokaralardan so'ng Samarqandda ham bo'ldi. Albaniya yetakchisi dastlab Imom Buxoriy majmuasini ziyorat qildi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan buyuk muhaddis bobomizning Islom olamida tutgan nufuziga mos tarzda yangidan bunyod etilgan majmuaning ulug'vorligi va bu yerdagi tarbiyaviy-ma'naviy muhit oliy martabali mehmonda katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, Imom Buxoriy hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi innovatsion muzeyni Albaniya yetakchisi hayrat bilan tomosha qildi.

Albaniya Prezidenti Amir Temur maqbarasi, Registon majmuasi, Mirzo Ulug'bek muzey-rasadxonasida ham bo'ldi. Samarqand xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" tarixiy-etnografik majmuasida milliy hunarmandlik mahsulotlari va xalq amaliy san'ati namunalari namoyish etildi.

Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begayning O'zbekistonga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI DOIRASIDAGI SAMARALI MULOQOTLAR

Boshlanishi 1-betda

Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat yetakchilari o'rtasida savdo-iqtisodiyot, transport, suv-energetika sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, shuningdek, madaniy-gumanitar dasturlar va hududlararo almashinuvlarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zaro hamkorlik va bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar kun tartibini boyitish maqsadida Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashining navbatdagi yig'ilishlari davomida hamda boshqa sheriklik mexanizmlari doirasida yangi loyiha va tashabbuslarni ishlab chiqish muhimligi alohida ta'kidlandi.

Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston — Tojikiston do'stlik, yaxshi qo'shinchilik va ittifoqchilik munosabatlari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki tomonlama sheriklikning barcha yo'nalishlaridagi yuqori sur'at mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi o'sib bormoqda, energetika, sanoat, qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi kooperatsiya loyihalari faol bosqichda.

Yangi tashabbuslarni, jumladan, hududlararo va madaniy-gumanitar almashinuvlar doirasida ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov bilan uchrashuvda Ozarbayjonning "PASHA Holding", "Neqsol Holding", "AzerGold" kompaniyalari hamda Ozarbayjon Xalqaro banki rahbarlari ham ishtirok etdilar.

Suhbat avvalida Ali Asadov davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Mamlakatimiz yetakchisi, o'z navbatida, Ozarbayjon xalqini kuni kecha bo'lib o'tgan bayram — Milliy najot kuni munosabati bilan tabriklandi.

O'zbekiston — Ozarbayjon do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada kengaytirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Barcha darajalardagi faol aloqalar mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 40 foizga oshdi. Qurilish, energetika, tog'-kon sanoati, geologiya, logistika, turizm va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Ikki mamlakat hukumatlari bo'lajak oliy darajadagi sammitning iqtisodiy kun tartibini puxta tayyorlashi muhimligi ta'kidlandi.

Bunda Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishi va Hududlar forumi natijador o'tishini ta'minlash zarurligi qayd etildi.

Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchin uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston — Belarus ko'p qirrali sheriklik munosabatlari yanada kengaytirishning dolzarb masalalari bo'lajak oliy darajadagi tadbirlarga tayyorgarlik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi.

Joriy yil may oyida Toshkent viloyatida bo'lib o'tgan Hukumatlararo komissiya yig'ilishining samarali natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash hajmi joriy yil boshidan buyon 32 foizga ortib, barqaror o'sib bormoqda. Qishloq xo'jaligi, mashinasozlik va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, shuningdek, madaniy-gumanitar va hududlararo aloqalarni faollashtirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish muhim ekani ta'kidlandi.

O'ZA

O'ZBEKISTON – AQSH: INVESTITSIYAVIY HAMKORLIKNING ASOSIY YO'NALISHLARI BELGILAB OLINDI

Boshlanishi 1-betda

Iqtisodiy hamkorlik O'zbekiston bilan AQSH o'rtasidagi strategik sheriklikning asosiy tayanch nuqtalaridan biri ekanini alohida ta'kidlandi.

Mamlakatimiz yetakchisi ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator dolzarb yo'nalishlarni belgilab berdi.

Muhim minerallarni o'zlashtirish va qayta ishlash, energetika, metallurgiya, moliya, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va boshqa ko'plab sohalarda aniq loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

AQSHning yirik kompaniyalari rahbarlari investorlarning samarali faoliyat yuritishiga yaratilgan qulay sharoitlar uchun O'zbekiston Prezidentiga

minnatdorlik bildirib, o'zlarining aniq taklif va rejalarni bayon etdilar.

Davra suhbatini yakunida AQSHning yetakchi kompaniyalari bilan ikki tomonlama hujjatlamani almashish marosimi bo'lib o'tdi.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Air Products" kompaniyasi bosh ijrochi direktori Eduardo Menezesni qabul qildi.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali sanoat korxonalarini barpo etishga faol investitsiya kiritayotgan AQSHning mazkur kompaniyasi bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

"Air Products" sanoat gazlarini ishlab chiqarish va yetkazib berish bo'yicha jahonning yetakchi kompaniyalaridan biri bo'lib, uning bozor kapitallashuvi

60 milliard dollardan oshgan. Kompaniya har yili 50 dan ortiq mamlakatda 200 million tonna sanoat gazlarini ishlab chiqarib, 750 ga yaqin ishlab chiqarish obyektlarini o'z ichiga olgan tarmoqni boshqaradi.

Ayni paytda kompaniyaning yurtimizga yo'naltirilgan investitsiyalarining umumiy hajmi 1 milliard dollardan oshgan. "GTL Uzbekistan" zavodida sanoat gazlarini qayta ishlash, Farg'ona neftini qayta ishlash zavodida vorodor ishlab chiqarish hamda "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatida suyuq uglerod dioksidi ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar hamda Toshkent va Qarshi shaharlarida ta'lim dasturlari amalga oshirilgan.

Uchrashuv yakunida kompaniya ishtirokidagi yangi loyihalarni amalga oshirishni "yo'l xaritasi" asosida jadallashtirish yuzasidan kelishib olindi.

O'ZA

O'ZBEKISTON VA GERMANIYA: O'ZARO MANFAATLARGA ASOSLANGAN ALOQALAR IZCHIL RIVOJLANMOQDA

esa Germaniya parlamenti bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruh faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik barqaror rivojlanishi bilan ajralib turadi va shakllangan institutsional hamkorlik mexanizmlariga tayanadi. 2015-yil fevral oyida tashkil etilgan Germaniya — O'zbekiston ishlabarmonlar kengashi muvofiqlashtirishning asosiy vositalaridan biridir. Kengash faoliyati ishlabarmonlik aloqalarini kengaytirish, qo'shma tashabbuslarni ilgari surish va ikki mamlakat biznes vakillari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Savdo va investitsiyalar bo'yicha hukumatlararo ishchi guruh iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning qo'shimcha mexanizmi bo'lib, uning doirasida istiqbolli loyihalar muhokama qilinadi va hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari kelishib olinadi.

Ikki tomonlama savdoda eng ko'p qulaylik yaratish shakli amal qilmogda, bu esa o'zaro tovar ayirboshlashni oshirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratadi. So'nggi yillardagi savdo dinamikasi asosan o'sish sur'atini namoyon etmoqda. Agar 2021-yilda tovar ayirboshlash hajmi 765,7 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 1,427 milliard dollarga yetdi. 2026-yilning yanvar-aprel oylarida esa o'zaro savdo hajmi 411,6 million dollar bo'ldi.

O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 2-3-may kunlari Germaniyaga rasmiy tashrifi o'zaro hamkorlikka yangi sur'at bag'ishladi. Tashrif yakunida ikki mamlakat o'rtasidagi sheriklikni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi. O'zbekiston rahbarining o'sha yil sentabr oyida "Markaziy Osiyo — Germaniya" formatidagi birinchi sammitda ishtirok etish uchun Germaniyaga tashrifi jadal siyosiy muloqotning davomi bo'ldi.



Ayni paytda O'zbekistonda Germaniya sarmoyasi ishtirokidagi 225 korxonalar faoliyat yuritmoqda, shuningdek, Germaniya kompaniyalari vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o'tgan.

Ikki tomonlama tovar ayirboshlash tarkibi ikki mamlakat iqtisodiyotining bir-birini to'ldiruvchi xususiyatini aks ettiradi. O'zbekiston eksportining asosini xizmatlar, to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari tashkil etsa, Germaniyadan import, asosan, uskunalar, mexanik mahsulotlar, transport

vositalari, butlovchi qismlar, farmatsevtika va kimyo mahsulotlari hisoblanadi.

Investitsiyaviy hamkorlikning amaliy qamrovi Germaniya kapitali ishtirokidagi korxonalar faoliyatida o'z aksini topmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda Germaniya sarmoyasi ishtirokidagi 225 korxonalar, jumladan, 100 foiz chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar faoliyat yuritmoqda, shuningdek, Germaniya kompaniyalari vakolatxonalarini akkreditatsiyadan o'tgan.

Madaniy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo aralash komissiya madaniy-gumanitar hamkorlikni muvofiqlashtirishning muhim mexanizmi bo'lib, uning faoliyati gumanitar aloqalarni mustahkamlash va qo'shma tashabbuslarni kengaytirishga xizmat qiladi. Ta'lim va fan sohasidagi hamkorlik eng faol yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda Germaniyaning yetakchi ta'lim va jamoat institutlari til o'rgatish, akademik almashinuv va ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasi gumanitar hamkorlikning istiqbolli yo'nalishi. Bugungi kunga qadar tibbiyot infratuzilmasini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va tibbiyot sohasida zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy etish bilan bog'liq qator qo'shma loyihalar ro'yobga chiqarildi.

O'zbekistondagi nemis diasporasining faoliyati, gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish uchun qo'shimcha asos bo'ladigan hududlararo aloqalarni rivojlantirish ikki tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirishning muhim ijtimoiy omili bo'lib qolmoqda.

Ikki tomonlama hamkorlik yillarida O'zbekiston va Germaniya o'rtasida turli darajadagi 169 ta bitim, jumladan, davlatlararo, hukumatlararo, idoralararo va boshqa hujjatlar imzolandi. Shakllangan normativ-huquqiy arxitektura hamkorlikning keng ko'lami yo'nalishlarini qamrab oladi va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yuqori darajada institutsionallashtirishni aks ettiradi.

Hamkorlik yillarida O'zbekiston va Germaniya muntazam siyosiy muloqotlar, rivojlangan institutsional mexanizmlar va kengayib borayotgan shartnomaviy-huquqiy bazaga asoslangan davlatlararo hamkorlikning barqaror tizimviy shakllantirishga muvaffaq bo'ldi. O'zaro tashriflar faollashuvi, tovar ayirboshlash hajmi o'sishi, investitsiya loyihalari amalga oshirilishi va gumanitar tashabbuslar rivojlanishi hamkorlikning yanada keng qamrovli va amaliyotga yo'naltirilgan modelga o'tayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda Germaniya biznesi ishtirokini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida loyihalarni amalga oshirish bilan birga kechadigan munosabatlarning iqtisodiy jihati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ta'lim, fan, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish ikki davlatni yanada yaqinlashtirish uchun uzoq muddatli asos yaratishga xizmat qiladi.

Zamonaviy xalqaro kun tartibi sharoitida O'zbekiston va Germaniya pragmatik yondashuv va o'zaro hurmatga asoslangan hamda manfaatli sheriklikni yanada chuqurlashtirishga intilishlarini namoyish etmoqda. Ekspertlar fikricha, ikki tomonlama aloqalarni yanada mustahkamlash O'zbekistonning umumiy Yevropa yo'nalishi bilan hamkorligini kengaytirishga xizmat qiladi hamda siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

"Dunyo" AA

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

YANGILANAYOTGAN TADBIRKORLIK TAFAKKURI

IQTISODIYOTNI HARAKATGA KELTIRUVCHI KATTA KUCH



Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senatining
Budjet va iqtisodiy masalalar
qo'mitasi raisi

Bu yil mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlaymiz. Bu shunchaki shonli sana emas, balki har bir o'zbekistonlikning erk va xohishi, jamiyatni yuksaltirish, milliy istiqlolni mustahkamlashning huquqiy asosidir. Ayniqsa, keyingi yillarda qo'lga kiritilayotgan tarixiy natijalar, yangi O'zbekiston g'oyasi asosida boshlagan

ulkan islohotlarimiz tufayli barcha soha va tarmoqlar, shaharu qishloqlar, har bir yurtdoshimiz hayoti, o'y-tafakkurida yuz berayotgan yangilanishlar kafilatidir. Mamlakatimizda "Inson qadri uchun, inson baxti uchun" degan ezgu tamoyilga asoslangan yangi O'zbekiston g'oyasi amalda qudratli harakatga aylandi. Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramay, iqtisodiyotimiz 6 foizdan yuqori sur'atda barqaror o'sayotgani xalqimiz o'zi tanlagan yo'ldan dadil borayotganini ko'rsatmoqda.

Gap iqtisodiy barqarorlik haqida borar ekan, o'tgan yilgi natijalarga to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi, nazardir. 2025-yil yangi O'zbekiston o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichiga qadam qo'ygan yil sifatida tarix sahifalariga muhrlandi. Prezidentimiz ta'бири bilan aytganda, bu davrga kelib, "biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik. Buning tasdig'ini tobora yangicha qiyofa kasb etib borayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy korxonalar, savdo-servis maskanlari, maktab, bog'cha va shifoxonalar, obod ko'cha va mahallalar, transport-logistika tizimi, raqamli xizmatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin".

Xususan, tarixda birinchi marta O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot hajmi 145 milliard dollardan, oltin-valyuta zaxiralari 60 milliard dollardan oshdi. Eksport hajmi 23 foiz oshib, 33,4 milliard, iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi esa 43,1 milliard dollarga yetdi.

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, oldinga boshlovchi katta kuchga aylangani, ayniqsa, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash borasida samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday harakatlardan asosiy maqsad iqtisodiy barqarorlikka erishish, xalqimiz farovonligini oshirishdir. Bunda asosiy vazifa — kambag'allikni qisqartirish va ishsizlik darajasini pasaytirish. Bu esa, o'z navbatida, xalqimizning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi, tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Davlatimiz rahbari raisligida hudud va tarmoqlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha birinchi chorak yakunlari tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar samara berayotgani alohida qayd etildi.

Xususan, birinchi chorak yakuni bilan yalpi ichki mahsulotimiz 8,7 foiz, sanoat 8 foiz, xizmatlar 16,1 foiz, qishloq xo'jaligi 5,1 foiz o'sdi. Eksport 5,8 milliard, xorijiy investitsiya hajmi esa 13,7 milliard dollarni tashkil qildi. Inflyatsiya yillik hisobda birinchi marta 7,1 foizgacha pasaydi.

Bular hisobiga yanvar-mart oylarida budjet daromadi o'tgan yildagiga nisbatan 35 foiz ko'payib, 103 trillion so'mga yetdi. Mahalliy budjetlarda qo'shimcha 2,2 trillion so'm mablag' shakllandi.

Ayni yo'nalishdagi islohotlar natijasida O'zbekiston nufuzli "Iqtisodiy erkinlik indeksi"da 14 pog'ona yuqorilab, ilk bor "iqtisodiyoti mo'tadil erkin" davlatlar qatoridan joy oldi.

Iqtisodiy sektor, umuman, barcha soha va tarmoqlarda erishilayotgan shu kabi natijalar, ijobiy ko'rsatkichlar hisobiga "O'zbekiston — 2030" strategiyasi yangilandi va navbatdagi zalvorli marralar belgilandi.

Yangilanigan ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash maqsadida Prezidentimizning barqaror iqtisodiy o'sishni saqlab qolish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish va ishsizlik darajasini pasaytirish, soliq munosabatlarini shaffofligini ta'minlash, raqamlashtirishni keng joriy etish orqali korruptsiyaga sabab bo'layotgan holatlarni barqaror aniqlash va oldini olish kabi muhim yo'nalishlarni qamragan farmon va qarorlari qayd qilindi.

Raqamlashtirish tufayli tekshiruvlar kamayadi. Tekshirish kamaysa, tadbirkorning vaqti tejaladi va faoliyati uzluksiz davom

etadi. Prezidentimizning 2026-yil 17-apreldagi "Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarni cheklash va nazorat tadbirlarining shaffofligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan tadbirkorlarga yangi imkoniyat va qulayliklar yaratildi.

Jumladan, hujjatdan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirishning nafaqat soni va muddatini qisqartirish, balki nazorat jarayonlarini raqamlashtirish orqali korruptsiya xavflarni kamaytirish, tadbirkorlar va davlat organlari o'rtasidagi muloqotda shaffoflikni ta'minlash masalalari alohida o'rin oldi.

Farmon bilan shu yil 1-iyuldan boshlab amaldagi funktsiyalariga qo'shimcha ravishda yangi imkoniyatlarga ega bo'lgan "Yagona davlat nazorati" axborot tizimi va uning mobil ilovasi ishga tushirilishi belgilandi. Natijada




tadbirkorlik subyektlari mahalliy hokimlik va nazorat organlari, vazirlik va idoralarning hududiy tuzilmalari rahbarlari haqida ma'lumot olish va ularga murojaat qilish tizimi yaratildi. Shu tariqa ortiqcha ovoragarchilikning oldi olinadi hamda tekshirishlarning qonuniyligi va tekshiruvchining vakolati to'g'risidagi ma'lumotlar real vaqt rejimida oshkor qilinadi.

Tadbirkor va davlat organi o'rtasidagi muloqotning shaffofligini ta'minlash masalasida alohida tartib va talablar belgilanishi bilan noqonuniy xatti-harakatlar barham topadi. Shu ma'noda, davlat xizmatchisi davlat organi nomidan yoki o'zining xizmat mavqeidan foydalangan holda tadbirkorlik subyekti faoliyatini yuritadigan binoga nazorat yoki profilaktika tadbirlari o'tkazish maqsadida kirish yoxud tadbirkorlik subyekti boshqa joyga chaqirishi nazorat tadbiri hisoblanmaydigan muloqot sifatida baholalanishi hamda "Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga muloqot haqidagi ma'lumotlarni kiritish davlat xizmatchilari uchun majburiy hisoblanishi muhim yangilik bo'ldi.

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan "Yagona davlat nazorati" axborot tizimiga kiritiladigan ma'lumotlar doimiy monitoring qilib boriladi va vakolati doirasida tegishli choralar ko'riladi.

"Yagona davlat nazorati" axborot tizimidan ro'yxatdan o'tmagan yoki tekshiruv o'tkazishga asos bo'luvchi hujjatlarni tizimga kiritmagan yoxud maxsus guvohnomaga ega bo'lmagan nazorat qiluvchi organning xodimi tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlar noqonuniy hisoblanishi tadbirkorlarning huquqiy himoyasi yanada kuchaytirilganidan dalolat. Chunki davlat



organi mansabdor shaxslari va mas'ul xodimlari tadbirkorlik faoliyatini erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortiladi.

Kichik biznesni rivojlantirish, shubhasiz, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim o'rin egallaydi. Dunyo iqtisodiyotidagi beqaror

banklar tomonidan ta'minotsiz onlayn mikro kreditlarni o'rta 1 soat ichida ajratish imkonini yaratish va ushbu mikro kreditlar ulushini 60 foizga yetkazish, shuningdek, kredit tarixiga ega bo'lmagan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish belgilangan.

Kichik biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2026-yil 1-iyuldan boshlab "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida qo'shimcha ravishda, mikro kreditdan foydalangan va ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga mikro kreditning garovsiz qismi 100 million so'mdan 200 million so'mgacha oshirildi.

Bundan tashqari, "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatiga kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit (lizing) miqdoridan qat'i nazar, uning 5 milliard so'mgacha qismi uchun belgilangan tartibda foiz xarajatlarini qoplash maqsadida kompensatsiya va har yili dastur asosida qo'llab-quvvatlangan, o'z faoliyatini kengaytirgan hamda yuqori ko'rsatkichga ega 100 ta tadbirkorlik subyekti faoliyatini raqamlashtirish, xalqaro

ko'p bo'ladi yoki soliq stavkalari qanchalik pasaytirilsa, budjet daromadi qisqarib, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish imkoniyati cheklanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz soliq stavkalari ko'paytirilmagan yoki o'zgartirilmagan holda soliqning yig'iluvchanlik darajasini yaxshilash orqali davlat budjeti daromadlari manbalarini mustahkamlash vazifasini belgilab bergan edi.

Bunda, ayniqsa, qulay soliqqa tortish tizimini yaratish orqali kichik tadbirkorlik subyektlarining yirik tadbirkorlikka o'tishini rag'batlantirish katta ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi kichik biznes subyektlari uchun soliq rejimida yanada qulayliklar yaratish, qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini soddalashtirish orqali aylanmani ochiqlash va biznesning o'sishini rag'batlantirish maqsadlarini nazarda tutuvchi "Kichik biznes subyektlarining o'sishi uchun yanada qulay iqtisodiy va ma'muriy shart-sharoitlar yaratish to'g'risida"gi farmoni bugunlab talabdir.

Farmon bilan shu yil 1-iyuldan boshlab kichik biznes subyektlariga soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o'tish uchun chegaraviy miqdor amaldagi 1 milliard so'mdan bazaviy hisoblash miqdorining 12 ming baravari etib belgilangan, eng avvalo, tadbirkorlar faoliyatini yanada kengaytirish hamda biznesni sun'iy maydallash holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda qo'shilgan qiymat solig'i zanjiridagi uzilishlarning oldini olish maqsadida muhim normal belgilanganini alohida qayd etish lozim. Jumladan, 2026-yil 1-iyuldan 2030-

“Kichik biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun 2026-yil 1-iyuldan boshlab "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida qo'shimcha ravishda, mikro kreditdan foydalangan va ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga mikro kreditning garovsiz qismi 100 million so'mdan 200 million so'mgacha oshirildi.

munosabatlar, ayniqsa, savdo-iqtisodiy aloqalardagi murakkabliklar hamda transport-logistika tizimidagi uzilishlar, albatta, har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Prezidentimizning bu masalaga alohida e'tibor qaratgani bejiz emas. Chunki iqtisodiy munosabatlardagi har qanday kechikish vaqt va mablag' yo'qotish, raqobatda yutqazinish anglatadi. Odatda, kechikishga raqamli moliyaviy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagan, tadbirkorlarda resurslar yetishmasligi bilan bog'liq muammolar sabab bo'ladi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining 2026-yil 26-maydagi "Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashni kengaytirishga doir navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada katta ahamiyatga ega.

Binobarin, qarorda tadbirkorlik subyektlariga ishonchli raqamli moliyaviy infratuzilma yaratish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni joriy etish orqali ularning ommabopligini yanada oshirish nazarda tutilgan.

Jumladan, 2030-yilga qadar kichik va o'rta biznes subyektlariga ajratiladigan kreditlar portfelini 3 baravar oshirib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 20 foizga chiqarish,



standartlarni va "yashil" texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq xarajatlari uchun 300 million so'mgacha grant ajratish vakolati berildi.

Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'rilayotgan chora-tadbirlar milliy iqtisodiyotimiz barqaror o'sishini ta'minlash, dunyo bozorida mamlakatimiz o'mini mustahkamlash va raqobatbardoshligini ta'minlash, eksport salohiyati va eng asosiy, bandlik darajasini oshirish hamda kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Soliq siyosati va uni yuritish murakkab jarayon. Soliq yuki qancha yuqori bo'lsa, joriy to'lashdan qochish holatlari shuncha

yil 1-yanvarga qadar asosiy faoliyat turi umumiy o'vqatlanish, savdo yoki xizmat ko'rsatish sohasi bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga ixtiyoriy ravishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab qayish va to'lashning soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqi beriladi.

Soddalashtirilgan tartibga o'tgan tadbirkorlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilish bo'yicha barcha aylanmaga nisbatan 6 foiz bo'ladi. Bunda ularga sotib olingan tovarlar bo'yicha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish huquqi berilmaydi. Ushbu toifadagi soliq to'lovchilar uchun foyda solig'i stavkasi nol foiz

etib belgilandi va soliq hisobotini taqdim etish majburiyati bekor qilindi.

Shuningdek, soliq solishning umumbelgilangan tartibida nazarda tutilgan qo'shilgan qiymat solig'i yiliga mavjud imtiyozlar, preferensiya va to'langan soliqning bir qismini qaytarib berish tartibi qo'llanmaydi. Ulardan tovarlar va xizmatlarni sotib olgan xaridorlarga qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish huquqi beriladi.

Bunday tartib davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalar hamda yirik soliq to'lovchilarga tatbiq etilmaydi.

Umumiy o'vqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlar uchun shu yil 1-iyuldan boshlab ayrim toifadagi xodimlarni mehnat organlarining mobil ilovasi orqali soddalashtirilgan tartibda shu kunning o'zida va muayyan muddatga rasmiylashtirish hamda ish haqini to'lash tartibi joriy etilgani, to'langan qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismini qaytarish, tushumning naqd pulsiz shaklda tushgan ulushidan qat'i nazar, to'langan soliq summasining 40 foizi miqdorida amalga oshirilishi belgilangani ushbu yo'nalishdagi tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va ish o'rinlarini legallashtirishga xizmat qiladi.

Soliq to'lovchilar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish va byurokratik to'siqlarni qisqartirish maqsadida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi guvohnomasini vaqtincha to'xtatib turish hamda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kiruvchi (import qiluvchi) yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarni majburiy tartibda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi deb e'tirof etish tartibi bekor qilindi.

Kichik biznes subyektlariga ma'muriy yukni kamaytirish maqsadida 2028-yil 1-yanvarga qadar soliq xavfi summasi 500 million so'mgacha bo'lganda — soliq auidi, soliq xavfi summasi 100 million so'mgacha bo'lganda — sayyor soliq tekshiruvini o'tkazilmaydi.

Sohada raqamlashtirish va sun'iy intellektdan foydalanish qamrovini kengaytirish soliq ma'muriyatchiligini shaffofligini ta'minlashda qo'l keladi. Boshqa tomondan, inson omilini qisqartirish orqali korruptsiyaga olib keluvchi holatlarni barqaror aniqlash va ularning oldini olishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning shu yil 19-maydagi "Soliq organlari faoliyatini institutsional jihatdan takomillashtirish va soliq ma'muriyatchiligida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni soliq tizimini zamonaviylashtirish, raqamlashtirish va soliq to'lovchilar uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan.

Farmonda soliq to'lovchilarga jahon standartlari darajasida xizmat ko'rsatish, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan keng foydalanish orqali yo'nalishlar sifatida belgilangan. Tadbirkorlar uchun yengilliklar yaratish maqsadida yo'l qo'ygan xatosini mustaqil to'g'rilash imkoniyati yaratildi. 2026-yil 1-iyuldan boshlab ortiqcha hujjat talab qilish — tekshiruvdan oldingi tahlilda aniqlangan talovlar bo'yicha soliq to'lovchidan majburiy ravishda aniqlashtirilgan hisobot yoki asoslovchi hujjatlar talab qilish amaliyoti bekor qilinadi. Shuningdek, ogohlantirish tizimi joriy etildi: soliq xavfi o'rta darajada bo'lgan korxonalar tekshiruv o'tkazishdan avval aniqlangan xavflar haqida elektron xabaroma yuboriladi. Bu tadbirkorga xatosini o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi.

2027-yil 1-yanvardan boshlab yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan neft va gaz mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i va noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanilgan uchun soliq, qishloq xo'jaligi yerlari uchun sur resurslaridan foydalanilgan uchun soliq hisobotlari soliq idoralari tomonidan proaktiv tartibda shakllantiriladi.

Farmonda belgilangan vazifalar soliq to'lovchilar uchun sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada halol soliq to'lovchilar safi kengayadi. Tekshiruvlar xavf tahlili asosida o'tkaziladi. Raqamlashtirish hisobiga inson omili ishtiroki kamayadi. Pirovardida soliqning yig'iluvchanlik darajasi ortadi va yashirin iqtisodiyot hajmi qisqaradi.

Shu bilan birga, soxta korxonalar zanjiri, sun'iy qo'shilgan qiymat solig'ini kamaytirish, naqd pul aylanmalarini yashirish va transfernt narxlaridan noto'g'ri foydalanish holatlarining oldi olinadi.

Qisqasi, "Halol ishlaydigan tadbirkorga yengillik, xavfli va qoidabuzar subyektni kuchli nazorat" tamoyili amal qiladi. Islohotlar milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va kuchli ijtimoiy himoyani amalga oshirishga xizmat qiladi. Belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash har birimizdan ishimizga mas'uliyat va sadoqat bilan yondashishni talab etadi.

Munosabat

QAT'IY ICHKI TARTIB, MUROSASIZLIK VA HUQUQIY MEKANIZMLAR IFODASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlarda komplyens nazorat tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy hayotida juda katta aks sado berdi. Sababi, ushbu farmon butun sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishga munosabatni mutlaqo o'zgartirib, quruq balandparvoz gaplardan aniq amaliy natijalarga o'tilishining huquqiy mexanizmlarini, tizimni tubdan sog'lomlashtirishga qaratilgan yangi konseptual g'oya va yo'nalishlarni belgilab berdi.

Farmon sud tizimida korrupsiya hamda manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan barobarida, mohiyat e'tiboriga ko'ra, nihoyatda keng qamrovli maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. Xususan, tizimda, birinchi navbatda, qat'iy ichki tartib va intizomni ta'minlash, har qanday qonunbuzarliklarning oldini olish, pirovard natijada samarali odil sudlov orqali eng muhim demokratik mezon — huquq ustuvorligiga erishish singari strategik maqsadni ko'zlaydi.

Hujjatning amaliy ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Birinchi, so'nggi yillardagi tub demokratik islohotlar sharoitida sud tizimining ichki tozalanishi va yangilanishi uchun halol-pok, salohiyatli sudya kadrlar korpusini shakllantirish borasidagi eng muhim vazifalarni belgilab berdi.

Ikkinchi, sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning eskirgan an'anaviy usul va vositalaridan (korrupsiyaviy jinoyat sodir etilganidan keyin uni jazolash) emas, balki yangicha yondashuvlar asosida ta'sirchan, samarali profilaktik huquqiy mexanizmlar ko'rsatib o'tildi.

Uchinchidan, milliy qonunchilik hujjatlarini qabul qilish amaliyotida ilk bor sudyalarning qatorida sudlar apparatlarini xodimlari faoliyatini takomillashtirish, ular kasb mas'uliyatini yanada chuqur his etishi uchun mansab darajasiga



Xolmo'min YODGOROV,
Sudyalar oliy kengashi raisi

Har qanday tizimni sog'lomlashtirish va undagi muammolarni bartaraf etishning birinchi va muhim sharti bu borada mavjud kamchiliklarni xaspo'shlamasdan, achchiq haqiqatni tan olib, unga nisbatan murosasiz kurashish chora-tadbirlarini belgilash hisoblanadi. Ming afsuski, bugungi kunda sud tizimida korrupsiyaviy holatlar uchray turgani, ayrim sudyalarning muqaddas qasamyodiga xiyonat qilayotgani bor gap. Bu kabi salbiy holatlarga shunchaki oddiy kamchilik sifatida qarab, ko'z yumib ketish kechirib bo'lmaydigan xato bo'ladi.



ega bo'lgan sud apparati xodimlari uchun ixtisoslashtirish xizmat kiyimini joriy qilish belgilandi.

To'rtinchidan, hali sudyalik lavozimiga tayinlanmasdan turib, munosib nomzodlarni kasbiy tayyorlash jarayonida, ularning shaxsiy-professional va korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini har tomonlama chuqur tekshirish, tahlil qilish (diagnostikadan o'tkazish) amaliyoti joriy etiladigan bo'ladi.

Beshinchidan, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni barvaqt bartaraf etish maqsadida sudyalarning va sudlar apparatlarini xodimlarining faoliyatini tizimli ravishda halollik standartlari asosida o'zlashtirish va haqqoniy baholab borish nazarda tutiladi.

Oltinchidan, sud organlari faoliyati ustidan natija beradigan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, bunda butun tizimni, har bir jarayonni transformatsiyalash, raqamlashtirish orqali inson omili kamaytirilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Agar tizimda halollik va adolat tamoyili yo'qolsa, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'riladigan har qanday chora o'z-o'zidan samarasiz bo'ladi va jamiyat uchun ulkan xavfga aylanadi.

Masalaning dolzarbligi shundaki, sud tizimidagi korrupsiya faqatgina iqtisodiy jinoyat emas, balki butun bir xalqning qonunga, davlat va kelajakka ishonchiga putur yetkazadigan og'ir illatdir. Sud tizimi to'g'ri va halol ishlagan taqdirdagina butun jamiyatga muvozanat va qonun ustuvorligi ta'minlanadi.

Bugungi o'zgarishlarning tub zamirida qat'iy mantiqiylik va tizimlilik yotibdi. Zero, ushbu farmon davlatimiz rahbarining o'tgan yil dekabr oyida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilishi, bu borada lozim bo'lgan barcha ishlar ko'rilishi haqidagi nutqida ilgari surilgan g'oya va tashabbuslarning uzviy davomidir.

Chunki boshqa idoralardagi korrupsiya alohida bir sohaga zarar yetkazsa, sud organlaridagi butun jamiyatning adolarga ishonchini so'ndiradi. Shu sababli, avvalo, sudlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni erta aniqlash va baholashning professional tizimini joriy etish vazifasi qo'yilmog'da.

Farmon bilan sud tizimida korrupsiyaning oldini olish borasida Sudyalarning oliy kengashi oldiga ham qator muhim vazifalar qo'yildi. Xususan, kengashning Sudyalarning dastlabki ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sud inspeksiya sudlar o'rtasidagi korrupsiyaviy holatlarni oldindan aniqlash, manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradigan omillarni bartaraf etishga mas'ul tuzilma sifatida belgilandi.

Ayni paytda kengash a'zolari va inspeksiya xodimlari tomonidan ushbu vazifani har tomonlama samarali bajarish uchun mutlaqo yangicha yondashuvlar asosida kompleks chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasiga 2026-yil yakuniga qadar sud tizimida korrupsiyaga qarshi barqarorlik va chidamlilik, immunitet shakllanganlik darajasini to'liq diagnostikadan o'tkazish vazifasi belgilandi. Bunday o'rganish va chuqur tahlildan o'tkazishga zarurat ham bor edi. Gap shundaki, ushbu diagnostik tahlil va prognozlar orqali tizimdagi qaysi bo'g'inlar korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ko'proq moyil ekani, qaysi hudud yoki sud instansiyalarida zaif nuqtalar mavjudligi aniq ilmiy metodlar va metodologiya asosida o'rganib chiqiladi.

Bu esa sudyalarning amaliyotdagi faoliyatida xavfli korrupsiyaviy illatning keltirib chiqaradigan o'ta salbiy oqibatlari bilan kurashish emas, balki uning kelib chiqish sabab va omillarini oldindan bartaraf etish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, Odil sudlov akademiyasida sudyalik lavozimlariga nomzodlarni sudyalik kasbiga har tomonlama munosib tayyorlash, bunda bo'lajak sudyalarga yuksak ma'naviy-xalqiy fazilatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish nazarda tutilmoqda. Bu kelajakda halol-pok faoliyat yuritishi uchun ularni korrupsiyaga tortadigan har qanday tashqi ta'sirlarga bardoshi qilib tayyorlash jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, ilg'or demokratik prinsiplar asosida tubdan o'zgartirishni talab etadi.

Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash jarayonida qo'shimcha ravishda nomzodning kasbiy psixologik portretini yaratishda korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan o'tkazish amaliyoti joriy etilishi sudyalikka nomzod bo'lgan har bir mutaxassis nafaqat qonunlarni mukammal bilishi, balki uning ruhiy-ma'naviy dunyosi, noqonuniy moddiy manfaatdorlikka tobe bo'lmasligi, nafsning oldida o'zini tuta bilishi, halollik mezonlariga sodiqligi bo'yicha ham jiddiy sinovdan o'tadi.

Agar ko'rsatilgan nomzodning shaxsiy-professional qiyofasida loqal kichik bir ma'naviy zaiflik yoki korrupsiyaga moyillik aniqlansa, u sudyalik kasbiga munosib ko'rilmaydi.

Bundan buyon tizimda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi muayyan organning faqat ichki tartib-qoidalari bilan cheklanmaydi, balki ilmiy-metodologik va professional mezonlar asosida doimiy nazorat qilib boriladi.

Farmon huquqiy mohiyatiga ko'ra, korrupsiyadan xoli bo'lgan sud tizimi faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan strategik islohotlarning ajralmas qismi sifatida sudyalarni tayyorlash va ularni lavozimlarga tayinlash jarayonida shaffof kadrlar siyosatini yuritish, oqilona va samarali platformalarni amaliyotga joriy qilishning fundamental asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hujjatning nihoyatda muhim ahamiyatga ega jihatlardan yana biri uning sudya odil sudlovni amalga oshirayotganda har qanday tashqi ta'sirlar, bosim va aralashishlarning oldini olish orqali sudyalarning mustaqilligi va xolisligini ta'minlashga qaratilganidir. Farmon bilan tizim oldiga qo'yilgan qat'iy talablar va yangi ma'naviy-tarbiyaviy mezonlar sud korpusini shakllantirish siyosatini tubdan o'zgartiradi.

Sud tizimida strategik ahamiyatga ega bo'lgan ushbu huquqiy hujjatdan kelib chiqib, Sudyalari oliy kengashi faoliyatiga oid yangi o'zgarishlarda faqatgina ma'muriy nazorat organi sifatida emas, balki sudyalarning va tizim xodimlarining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy saviyasini uzluksiz oshirib borish masalasi bosh mezon qilib belgilanmoqda.

Korrupsiyaga qarshi ququq va balandparvoz shiorlar bilan kurashish davri ortda qoldi. Bugungi yangi jamiyat, shiddatli islohotlar sharoitida tizimdagi muammolarni bartaraf etish uchun faqatgina ma'naviy haqiqatlar emas, balki aniq ilmiy-amaliy va tashkiliy mexanizmlar ishga solinishi talab etilmog'da.

O'rni kelganda, mamlakatimiz taraqqiyotining sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichida sud organlarini yangi O'zbekistonga barpo etish yo'lidagi islohotlar ko'makchisiga aylantirishga qaratilgan tom ma'nodagi zalvorli ishlar qilinayotganini alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, keyingi 3-4 yilda tizimda 400 ta yangi sudyalik shtat birligi vujudga keldi. Sud tizimi tarixida birinchi marta tergov sudyasi instituti joriy etildi. Sudyalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bunday amaliy ishlarni uzoq sanash mumkin.

Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, soha mutasaddilari oldiga o'ta muhim va kechiktirib bo'lmaydigan strategik vazifalar qo'yildiki, u navbatdagi topshiriq emas, balki sud tizimini poklash va uning korrupsiyaga qarshi ichki immunitetini kuchaytirishga qaratilgan tub burilish nuqtasidir.

Ushbu farmon sudyalarning va sud tizimi xodimlarining huquqiy tafakkurida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik shunchaki bir axloqiy talab emas, balki umummilliy barqarorlik va taraqqiyot, tinchlik va xotirjamlik, millat, xalq, Vatan faronovligi asosi ekani to'g'risidagi nihoyatda muhim tushunchalarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Shubhasiz, farmonda belgilangan keng ko'lamdagi ezgu maqsad va vazifalar yangi O'zbekistondagi demokratik islohotlarga mustahkam poydevor bo'ladi.

17-iyun – Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni

"YASHIL" IMKONIYATLAR hududiga aylanayotgan O'ZBEKISTON

Jahongir ISAYEV,
Barqaror rivojlanish markazi bo'lim boshlig'i



Markaziy Osiyo sharoitida yer degradatsiyasi, cho'llanish va qurg'oqchilik faqat ekologik muammo emas. Bu jarayon suv taqchilligi, qishloq xo'jaligi mahsuldorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi daromadi va hududiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, O'zbekistonda yer, suv, yaylov va iqlim masalalarini yagona, barqaror rivojlanish zanjiri sifatida boshqarish, Orolbo'yi tajribasi, "Yashil makon" umummilliy harakati, suv tejavchi texnologiyalar va xalqaro hamkorlikni o'zaro bog'lagan holda amaliy natijaga yo'naltirish bugunning muhim vazifasidir.

Jahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni ana shu masalalarni yana bir bor kun tartibiga olib chiqib, yer degradatsiyasi, qurg'oqchilik, tuproq unumdorligi, yaylovlar holati va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy qarorlarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

2026-yilda ushbu sana "Yaylovlar: tan olish, hurmat qilish va tiklash" g'oyasi bilan bog'lanmoqda. Bu O'zbekiston uchun ham muhim. Chunki yaylovlar faqat chorva boqiladigan maydon emas, balki qishloq aholisi daromadi, oziq-ovqat ta'minoti, tabiiy ekotizimlar va cho'l-yarim cho'l hududidagi hayot barqarorligi asosidir. Xalqaro miqyosda ham yaylovlar quruqlikning yamidan ko'prog'ini qamrab olishi va qariyb 2 milliard insonning turmushi, chorvachilik va oziq-ovqat tizimlari bilan bog'liqligi bu masalaning global ahamiyatini ko'rsatadi.

O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti bu masalaga alohida mas'uliyat bilan yondashishni talab etadi. Mamlakat hududining katta qismi qurg'oqchilik va yarim qurg'oqchilik mintaqalarga to'g'ri keladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, yaylovlar 20 million gektardan ortiq maydonni egallaydi. Shu bilan birga, suv resurslari cheklangan, iqlim o'zgarishi, tuproq sho'rlanishi, yaylovlardan me'yordan ortiq foydalanish, shamol va suv eroziyasi, ayrim hududlarda o'simlik qoplamining kamayishi yer degradatsiyasi xavfini kuchaytirmog'da.

So'nggi yillarda ekologik xavfsizlik, suv resurslaridan oqilona foydalanish, Orolbo'yni tiklash, "Yashil makon" umummilliy loyihasi va iqlim o'zgarishiga moslashuv masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Davlatimiz rahbari xalqaro va mintaqaviy minbarlarda iqlim o'zgarishi, suv taqchilligi, yer degradatsiyasi va Orolbo'yi muammosini Markaziy Osiyo barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sifatida izchil ko'tarilishga aylandi. Jumladan, Global ekologik jamg'armaning VIII assambleyasi ishtirokchilariga yo'llangan murojaatda ekologik muammolarni faqat xavf sifatida emas, balki yangi texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, "yashil" ish o'rinlari va mahalliy rivojlanish imkoniyati sifatida ko'rish zarurligi ta'kidlangan.

Sekin kechadigan, ammo og'ir oqibatli xavf

Yer degradatsiyasi ko'pincha darhol ko'zga tashlanmaydi. Tuproqning unumdor qatlami yillar davomida kamayadi, sho'rlanish asta-sekin kuchayadi, o'simlik qoplami qisqaradi, yaylov sig'imi pasayadi. Suv taqchilligi va qurg'oqchilik esa bu jarayonni yanada tezlashtiradi.

Biroq uning oqibati juda keng. Agar yer unumdorligi pasaysa, hosil kamayadi. Hosil kamaysa, fermer daromadi qisqaradi. Daromad qisqarsa, qishloq joylarda bandlik va ijtimoiy barqarorlikka bosim ortadi. Yaylovlar degradatsiyaga uchrasa, chorva mahsuldorligi pasayadi, oziq bazasi zaiflashadi, go'sht va sut mahsulotlari tannarxi oshadi. Sho'rlanish va qurg'oqchilik kuchaysa, suvdan foydalanish samaradorligi pasayadi, qishloq xo'jaligi xarajati ko'payadi.

Shu sababli yer degradatsiyasini faqat tabiiy muhofazasi muammosi sifatida ko'rish yetarli emas. Bu iqtisodiy samaradorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, mahalliy daromad, aholi salomatligi va hududiy tenglik masalalaridir. Boshqacha aytganda, yerning yemirilishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekistonda suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, Orolbo'yida ekologik tiklash choralarini ko'rish va ko'kalamzorlashtirish ishlarni

kengaytirish kabi tashabbuslar aynan shu xavflarga tizimli javob sifatida amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ilgari surgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi yer degradatsiyasi, chang-to'zon, iqlim o'zgarishi va shahar-qishloq hududlarida ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan keng jamoatchilik harakatiga aylanmoqda. Ushbu tashabbus doirasida har yili 200 million tup daraxt va buta ekilmog'da.

Yaylovlar O'zbekistonda chorvachilik, qishloq aholisi daromadi va oziq-ovqat ta'minotida muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, ular cho'l va yarim cho'l hududlarida tuproqni shamol eroziyasidan himoya qiladi, o'simlik qoplamini saqlaydi, bioxilma-xillikni ta'minlaydi va mahalliy iqlim muvozanatiga xizmat qiladi.

Ammo ayrim hududlarda yaylovlardan foydalanishda tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Chorva soni va yaylov sig'imi o'rtasidagi nomutanosiblik, suv nuqtalarining yetarli emasligi, chorva mollarni mavsumiy harakatlantirish va navbatlab boqish amaliyotining sustligi, degradatsiyaga uchragan maydonlarda mahalliy o'simliklarni tiklash ishlarning yetarli darajada tizimlashmagani yaylovlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yaylov degradatsiyasi faqat o't-o'lan kamayishi degani emas. Bu chorva mahsuldorligi pasayishi, qishloq aholisi daromadining qisqarishi, oziq bazasining kamayishi, chang-to'zonning ko'payishi va yerning tabiiy tiklanish qobiliyati susayishi deganidir.

Shu bois, yaylovlarga munosabatni tubdan o'zgartirish zarur. Yaylov cheksiz va bepul resurs emas, balki hisob-kitob, monitoring, tiklash, mas'uliyatli foydalanish va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini talab qiladigan tabiiy kapitaldir. Ekologik masalalarni iqtisodiy

milliy tajriba maydoniga aylanoqda. Qarib qolgan dengiz tubida saksovlar va boshqa sho'rga chidamli cho'l o'simliklarini ekish, yashil qoplamalar barpo etish, mahalliy flora va faunani tiklash, yangi ko'chatxonalar tashkil qilish va ekologik tadqiqotlarni kuchaytirish bu yo'nalishdagi muhim ishlardir. Orolbo'yida yashil qoplamalar maydoni 2 million gektardan oshgani ushbu jarayonning ko'lami va ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida rivojlantirish g'oyasi ilgari surilgani bu masalaga yangicha yondashuvni ifodalaydi. Bu yondashuv Orol fojiasini faqat ekologik muammo sifatida emas, balki yangi ish o'rinlari, ilmiy tadqiqotlar, "yashil" texnologiyalar, mahalliy aholi daromadi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari bilan bog'liq kompleks rivojlanish maydoni sifatida ko'rishni talab etadi.

Orolbo'yidagi ishlarni faqat daraxt ekish kampaniyasi sifatida qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi. Bu hududda ko'rilayotgan choralar chang-to'zon tarqalishini kamaytirish, tuproqni mustahkamlash, mahalliy aholini ish bilan ta'minlash, cho'l ekotizimlarini tiklash va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, Orolbo'yi "muammo hududi"dan "yashil imkoniyatlar hududi"ga aylanoqda.

Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashda O'zbekiston uchun eng muhim masala yer, suv, yaylov va iqlim omillarini alohida emas, yagona tizim sifatida boshqarishdir. Buning uchun umumiy chaqiriqlardan amaliy



rivojlanish, aholi bandligi va innovatsiyalar bilan bog'lash yaylovlar sohasi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Milliy tajriba maydoni

Mamlakatimizda cho'llanish va yer degradatsiyasi masalalari Orolbo'yi muammosidan ajratib bo'lmaydi. Orol dengizi qurishi natijasida paydo bo'lgan hudud tuz va chang bo'roni, tuproq va suv sifatining yomonlashishi, aholi salomatligiga ta'sir, bioxilmaxillik kamayishi va mahalliy iqtisodiyotga bosim kabi muammolarni yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, Orolbo'yi bugun cho'llanishga qarshi kurashning o'ziga xos

mexanizmlarga o'tish, har bir hududda yer degradatsiyasi xavfini aniq baholash va tiklash ishlarni natijaviy ko'rsatkichlar bilan bog'lash zarur.

Bugun mamlakatimiz yetakchisi tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ekologik siyosat muhim bir g'oyaga tayanadi: tabiatni asrash — insonni, uning salomatligi, daromadi va kelajagini asrash demakdir. Shu jihatdan yer, suv, yaylov va iqlim masalalarini yagona barqaror rivojlanish zanjiri sifatida boshqarish mexanizmlariga o'tilmog'da.


17-iyun bizga oddiy, ammo muhim haqiqatni eslatadi: yer faqat ishlab chiqarish vositasi emas. U suv, oziq-ovqat, salomatlik, daromad va barqaror hayotning tabiiy asosidir. Yerni asrash — kelajak avlodlar oldidagi ekologik, iqtisodiy va ma'naviy mas'uliyat.

Davlatimiz rahbarining bu qarori umidi so'nish arafasida turgan bemorlar uchun hayotbaxsh kuch bo'ldi. Jizzaxdagi mazkur operatsiya esa qog'ozdagi ezgu g'oyalarning amalda qanday qilib inson hayotini saqlab qolishiga jonli misoldir.

"MEN BUGUN QAYTADAN TUG'ILDIM!"

yoxud jizzaxlik bemorning iztirobli yillari ortda qolgani haqida

Inson qadri



Ba'zan bir inson taqdirida ro'y bergan quvonchli o'zgarish butun jamiyat uchun umid va ishonch uyg'otadi. Ba'zan esa murakkab jarrohlik amaliyoti shunchaki tibbiy jarayon chegarasidan chiqib, davlat siyosatining insonparvarlik mohiyatini, xalqparvar g'oyalar va inson qadri ulug'lash tamoyillarining amaldagi eng yorqin ifodasini ko'rsatuvchi tarixiy voqega aylanadi. Jizzax tibbiyot klasterida ilk bor muvaffaqiyatli amalga oshirilgan buyrak transplantatsiyasi ana shunday qutlug' va tarixiy voqealardan biri bo'ldi.

Bu kabi yutuqlar o'z-o'zidan yoki tasodifan paydo bo'layotgani yo'q. Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrif chog'ida Jizzax tibbiyot klasteri faoliyati bilan shaxsan tanishib, bu yerda yaratilgan zamonaviy sharoitlar, yuqori texnologik tibbiy xizmatlar imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratgani va mahalliy shifokorlarni qo'llab-quvvatlagani soha rivojiga mutlaqo yangi sur'at va katta ishonch bag'ishladi. Bugun ana shu yuksak

e'tibor, tizimli g'amxo'rlik va qat'iy iroda ilk amaliy, hayotiy mevalarini bermoqda.

Jizzax tibbiyot klasterida ilk marotaba buyrak ko'chirib o'tkazish murakkab jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli bajarilgani nafaqat viloyat, balki mamlakat sog'liqni saqlash tizimi hayotidagi ulkan qadam sifatida baholanmoqda. Zero, transplantologiya tibbiyotining eng murakkab, nozik va yuqori malaka hamda zamonaviy infratuzilmani talab qiluvchi sohalaridan biridir.

Mazkur murakkab jarrohlik amaliyoti Milliy tibbiyot markazining transplantologiya bo'yicha yetakchi mutaxassisi, tibbiyot fanlari doktori Jasur Sobirov boshchiligidagi yuqori malakali jamoa hamda Jizzax tibbiyot klasterining mahalliy shifokorlari bilan hamkorlikda, chinakam mahorat maktabi sifatida amalga oshirildi.



Ushbu xayrli ish davlatimiz rahbarining 2026-yil 21-maydagi "Muborak Qurbon hayoti munosabati bilan aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mehri-xohavot tadbirlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida, "Vaqt" xayriya jamoat fondi mablag'lari hisobidan to'liq moliyalashtirilgan holda o'tkazildi.

Davlatimiz rahbarining bu qarori umidi so'nish arafasida turgan bemorlar uchun hayotbaxsh kuch bo'ldi. Jizzaxdagi mazkur operatsiya esa qog'ozdagi ezgu g'oyalarning amalda qanday qilib inson hayotini saqlab qolishiga jonli misoldir.

To'qqiz yil... Bu shunchaki oddiy raqam emas. Bu surunkali buyrak yetishmovchiligi kasalligi bilan og'riq, haftasiga bir necha bor gemodializ apparatiga bog'lanib, yashash uchun tish-tirmog'i bilan kurashgan Sarvar Abdiyevning iztirobli yillaridir. 1985-yilda tug'ilgan bemor uzoq yillar davomida og'ir dard yukini yelkasida ko'tarib, hayotning har

bir kunini umid va xavotir, og'riq va iztirob bilan qarshi olgan. Uning uchun transplantatsiya amaliyoti yagona va oxirgi najot edi.

Tibbiy tekshiruvlar natijasida unga donor sifatida 1978-yilda tug'ilgan amakivachchasi Yunus Abdiyevning organi to'liq mos kelishi aniqlandi. Operatsiya muvaffaqiyatli yakunlanib, bemor palataga olingach, u bilan suhbatlashdi.

— Yaratganga behisob shukrlar bo'lsin, bugun o'zimni xuddi dunyoga qayta kelgandek his qilyapman, — deydi Sarvar quvonch ko'z yoshlarini artib. — Ahvolim ancha yaxshi.

Rostini aytmas, to'qqiz yil davomida chekkan azoblarim, umidsizlikka tushgan kunlarim ortda qolganiga haliyam ishongim kelmayapti... Har gal gemodializ apparatiga yotganimga, tanam madorsizlanganda, yashashdan charchab ketardim. Buyrak ko'chirish operatsiyasi juda qimmatligi, oilamning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklangani sababli ba'zan taqdirga tan berib, umidimni butunlay uzib qo'yan kunlarim bo'lgan. Prezidentimizning mazkur tarixiy qarori men kabi kasal, ammo chorasiz insonlarga yangi hayot eshiklarini ochdi. Davlatimiz bizni tashlab qo'ymaganini, og'ir kunimda yelkadosh bo'lganini qalbdan his qildim. Men bugun qayta tug'ilgandek bo'ldim.

Sarvarning hikoyasida yana bir qalbni larzaga soluvchi muhim jihat bor, bu xalqimizga xos mehro-qo'bat va jigarlilik rishtalarining qudratidir. Donor izlash jarayoni boshlanganda uning qarindoshlari, yaqinlaridan bir necha kishi ikkilanmay, o'z jigarini qutqarish uchun buyragini berishga tayyor ekanini bildirgan. Bu yuksak mehro-qo'batni davlatimiz ham borganiga operatsiyadan oldin ulkan ruhiiy kuch, hayotga kuchli ishonch bag'ishlagan edi.

Qarindoshlik mehri va insonparvarlikning yuksak namunasini ko'rsatgan Yunus Abdiyev amakivachchasingan sog'lom hayotga qaytishi uchun o'z tanasining bir bo'lagini berish qarorini hech bir ikkilanishsiz, chin yurakdan qabul qilganini ta'kidlaydi:

— Yaqin qarindoshing-jigaring ko'z o'ngingda so'nib borsa, buni ko'rib turish eng katta azob. Amakimning o'g'li Sarvarjonga donor kerakligini va buyragim unga mos kelishini aytishganda, bir daqiqam ham o'ylab o'tirganim yo'q. Axir biz bir daraxtning shoxlarimiz, qonimiz bir. Oilam, farzandlarim ham bu qarorimni to'liq qo'llab-quvvatlashi va duo qilib turdi. Bugun shifokorlar yuzidagi

Issiq jonning isitmasi chiqadi. Biror joyimiz og'risa, ba'zan shifokor maslahati va tashxisisiz dorixonaga shoshamiz. Bu bilan muammolarni tezda hal qilish va vaqtni tejashni xohlaymiz. Ammo pala-partish, o'zboshimchalik bilan davolanish organizmdagi hayotiy muhim a'zolarida turli og'ir darajadagi asoratlar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi, to'g'ri davolanish uchun qimmatli vaqt yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi kombustologiya va toksikologiya bo'yicha bosh shifokori o'rinbosari Mardon NARZIYEV bilan suhbatimiz shu haqda bo'ldi.

— Har qanday dori xavfsiz emas, hatto retseptsiz beriladigan ham qarshi ko'rsatmalar va nojo'ya ta'sirlar mavjud. Shunga qaramay, o'zboshimchalik bilan davolanish va uning oqibatida yuzaga kelayotgan og'ir asoratlar uchrab turibdi. Bu, tabiiyki, kasallik ustidan nazorat yo'qolishi, inson salomatligiga tahdid solishi, ayrim hollarda noxush yakun topishi mumkin, shunda emasmi?

— Odamlar ko'pincha "Agar og'riq bo'lsa, men tabletkani ichishim kerak" tamoyili asosida harakat qiladi va shifokor bilan maslahatlashmasdan dori-darmonni o'zi tanlaydi. Natijada u kasallik alomatlarini davolaydi, ammo asl sababini bartaraf etmaydi. Masalan, yo'tal virusli infeksiya va yurak yetishmovchiligi alomati bo'lishi mumkin. Noto'g'ri tanlangan dori yordam bermaydi. Bundan tashqari, bu qimmatli davolanish vaqti yo'qolishiga olib keladi.

Ayrim dorilar kutilmaganda allergik reaksiya yoki anafilaktik shok chaqirsa, ba'zilar jigar va buyrak faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Boshqalari esa yurak ritmi buzilishiga olib kelishi mumkin. O'zboshimchalik bilan davolanish shifoxonaga yotqizishni talab qiladigan jiddiy asoratlarga olib kelgan holatlar mavjud. Shuning uchun hatto retseptsiz beriladigan dorilarni qabul qilishda ham turli nojo'ya ta'sirlarni hisobga olish muhim.

Bir necha dori birga qabul qilish har bir dorining ta'sirini sezilarli darajada oshirishi yoki susaytirishi mumkin. Oziq-ovqat va ichimliklar ba'zan dorilar so'rilishini o'zgartiradi. Tibbiy maslahatsiz qabul qilingan dori davolash samaradorligini pasaytirishi yoki organizm faoliyatini izdan chiqarish ehtimoli katta. Ayniqsa, qonni suyultiruvchi dorilarni o'zboshimchalik bilan ichish mumkin emas. Sababi, qonning haddan ortiq suyuy bo'lishi jarohatlarga qon to'xtamay qolishiga, insult va boshqa kasalliklar rivojlanishiga olib keladi. Yurak faoliyatiga ta'sir qiladigan dori-darmonlarni qabul qilish uchun, avvalo, bemorlar kardiolog-terapevt mutaxassislar ko'rigidan o'tishi kerak.

Aytilik, yo'tal va burun bitishi o'tkir respirator virusli infeksiya (shamollash) tufayli yuzaga kelishi mumkin, bu ko'proq iliq suyuqlik ichish va uy sharoitida parvarish bilan davolanadi. Ammo u pnevmoniya va sinusit tufayli ham kelib chiqadi. Bu holatda antibiotik buyuriladi. Bemor yoki uning yaqini muayyan alomat sababini mustaqil ravishda aniqlash maqbul hisoblanmaydi. Oddiy shamollash deb o'ylaganimiz ortida ham jiddiy xastalik bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Yana bir holat. Odamlar sog'liq bilan bog'liq muammolarga yuzaga kelganda ko'pincha

kelishiga turki berishi mumkin. Shuningdek, buyrak usti bezi yetishmovchiligiga sabab bo'lish ehtimolini ham istisno qila olmaymiz. Stressga moyillik kuchayadi.

Ayni paytda elektron retsept amalda. Karbamazepin, dimedrol, psixotrop dori retsept asosida beriladi. Shu sabab istagan odam uni sotib olo olmaydi. Tajribamizdagi og'riqli bir holatga to'xtalmoqchiman. O'z joniga qasd qilish holatlari o'rganilganda, qon bosimini

Antibiotiklar nafaqat tirik mikroblarni, balki tirik hujayralarni ham o'ldirishi yoki nekroza uchraganiga olib kelishi hech gap emas. Antibiotikdan keyin buyrak qurib qolishi yoki yurakka ta'siri ko'rsatishi ko'p kuzatilgan.

O'pkada organizmning immunitetiga qarshi kurashadigan saprofit mikroblarni yo'q qilishi, allergiya kuchayishiga sabab bo'lishi isbotlangan. Ayniqsa, yoshlarda kuzatilayotgan bronxial astma, allergik rinit yoki teri kasalliklari

etiladi. Shunda organizmning infeksiyaga qarshi kurashish imkoniyati ortadi. Xonani shamollatib turish va havoni namlash infeksiyaga qarshi samara beradi, istima bo'lganda shifokor tavsiyasi bilan og'riq qoldiruvchi va isitma tushiruvchi dorilardan foydalanish mumkin.

— Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi tibbiy tavsiyalar haqida fikringizni bilmog'chi edim.

yurtdoshlarimiz bizga tez-tez murojaat qilyapti. Bu og'riqli muammo. Hech qachon, hech narsa qilmay, yugum holda oziq shifokor emas. Shifokor ko'rigi, bir qancha tekshiruvlardan so'ng muolaja olish, to'g'ri ovqatlanish, sog'lom turmush tarziga rioya qilish tavsiya etiladi.

Yurtdoshlarimizda tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi qaror topishida shunga ixtisoslashgan markazlarning o'rni alohida. Masalan, vazn o'rinishning oldini olish uchun, birinchi navbatda, jismoniy faollikni oshirish, to'g'ri ovqatlanish madaniyatini shakllantirish, dorilarni tartibsiz va shifokor nazoratizis qabul qilmaslik, stressga moyillikni pasaytirish tavsiya etiladi.

— Dori-darmon reklami odamlarning o'zboshimchalik bilan davolanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?

— Reklamning ta'siri yaxshigina sezil-yapti desak, xato bo'lmaydi. Reklama dorining foydasini ta'kidlaydi, natijada ba'zi odamlar uni xavfsiz va hamma uchun mos deb qabul qilishi mumkin. Bu esa shifokor murojaat qilmay, dori ichishga undaydi. Reklama qilingan dorini ichish bilan tuzalib qoladigandek, inson o'zida kasallikni yuzigib o'tishga kuch topgandek tuyuladi. Bu dorini nazoratsiz, nojo'ya ta'sirlarni obdan o'rganmasdan qabul qilishga olib boradi. Garchi kasallik alomatlari o'xshash bo'lsa-da, har bir bemor individual, ichki imkoniyatlari turlicha. Shifokor tavsiyasiz, o'zi bilganicha dori ichishning oqibatlari ayanchli bo'lishi mumkin.

Biologik faol qo'shimcha dori emas, kasallikni davolash mo'ljallanmagan. Har qanday dori turli kasalliklarda uchrashi mumkin. Misol uchun, isitma va yo'tal oddiy shamollash, virusli infeksiyalardan biriga boshqa jiddiy kasalliklarda ham uchrashi bor gap. Ba'zan inson o'zini juda holsiz sezadi. Bu vitamin yetishmasligi, kamqonlik yoki onkologik kasalliklar belgisi bo'lishi ehtimoli bor. Buni tekshirmasdan turib aniq tashxis qo'yib bo'lmaydi. Bosh og'rishning sabablari turlicha. Vaqtda aniqlangan sabab kasallik kuchayishi va surunkali tusga o'tishi, salomatlikka, inson hayotiga xavf soladigan boshqa jiddiy xastaliklar yuzaga kelishining oldini oladi.

— Shifokor tashxisi nima uchun muhim? — Mutaxassis kasallikni aniq belgilaydi. Bir xil belgilar turli kasalliklarda uchrashi mumkin. Misol uchun, isitma va yo'tal oddiy shamollash, virusli infeksiyalardan biriga boshqa jiddiy kasalliklarda ham uchrashi bor gap. Ba'zan inson o'zini juda holsiz sezadi. Bu vitamin yetishmasligi, kamqonlik yoki onkologik kasalliklar belgisi bo'lishi ehtimoli bor. Buni tekshirmasdan turib aniq tashxis qo'yib bo'lmaydi. Bosh og'rishning sabablari turlicha. Vaqtda aniqlangan sabab kasallik kuchayishi va surunkali tusga o'tishi, salomatlikka, inson hayotiga xavf soladigan boshqa jiddiy xastaliklar yuzaga kelishining oldini oladi.

Dorini kichik bolalarning qo'li yetmaydigan joyga qo'yish kerak. Tajribamizda kattalarga buyurilgan dorini ichib, zaharlangan bolalar ham uchrab turadi. Ba'zan ota-onalarning beparvoiligi, tibbiy madaniyat yetishmasligi tufayli sodir bo'ladigan bunday voqealar ayanchli oqibat bilan yakun topadi. Bir oilaning quvonchi, hayotim davomchisi bo'lgan bolalar salomatligi hamma narsadan muhim. Unga daxl qilishga hech kimga haqqi yo'q. Shunday ekan, dori-darmonni saqlash va qabul qilishga malaka va bilim bilan yondashmoq kerak.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

Salomatlik – el boyligi

O'ZBOSHIMCHALIK BILAN DAVOLANISH

sog'liq uchun JIDDIY TAHDID demak



poliklinikaga murojaat qiladi. Shifokordan har bir kasalga individual yondashib, barcha jihatlarini inobatga olgan holda davolash tavsiyasi qilish talab etiladi. Afsuski, ayrim hamkasblarimiz bemorga kerak-keraksiz tekshiruvlar o'tkazishi, shart bo'lmasa-da antibiotik buyurishi uchrab turibdi.

O'zboshimchalik bilan davolanishning salbiy oqibati uzoq muddatdan keyin ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Misol uchun, antibiotik va gormonal dorilarning salbiy ta'siri keyinroq seziladi. Antibiotik organizm uchun foydali mikroflorani yo'q qilishi hamda jigar faoliyatiga zarar yetkazishi mumkin. Antibiotikning asoslanmagan holatlarda keng qo'llanish oqibatida keyinchalik odamda asab tizimi izdan chiqishi kuzatilishi tibbiyotda isbotlangan. Chunki insonni ruhiy muvozanatda ushlab turadigan serotonin moddasi asosan ichkada ishlab chiqariladi. Ichkadagi mikroflora organizmimizga kerakli vitaminlarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Gormonlarni uzoq vaqt qabul qilish bo'lg'im kasalliklari, koksartroz, jigar kasalliklari, gepatit ko'payib ketishiga ham olib kelyapti. Gormonlarning yana bir salbiy ta'siri, u endokrin kasalliklar, misol uchun, qandli diabet yuzaga

tushiradigan dorilar ko'p miqdorda iste'mol qilingani ma'lum bo'lgan. Aynan shu guruhga kiruvchi dorilar ham retsept orqali berilishi yo'lga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

— Antibiotiklarni nazoratsiz iste'mol qilish keyinchalik qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin?

— Birinchi marta o'ylab topilganda penitsillin yallig'lanishlarni samarali davolagan bo'lsa, hozir ta'siri deyarli sezilmay qolgan. Ko'plab yangi avlod dorilar yaratildi, kuchli antibiotiklar iste'molga kiritildi. Gripp yoki oddiy shamollash belgilari kuzatilganda kuchli antibiotik tavsiya etish salbiy oqibatini ko'rsatadi. Organizmning chidamliligi juda pasayib ketdi. Bakteriyalar antibiotiklarga moslashib, ular ta'sir qilmaydigan shakllarga aylandi. Natijada oddiy infeksiyalarga ham ba'zan dori ta'sir qilmayapti.

Kelgusida infeksiyalarning tufayli bemorlarni saqlab qolish qiyinlashishi mumkin. Bu esa o'lim xavfini oshiradi. Iqtisodiy oqibatlari ham og'riqli. Kuchli va qimmat dorilar, oylab shifoxonada yotish va qo'shimcha tibbiy muolajalar har qanday odamning tinkasini quritishi tabiiy. Chidamli bakteriyalar odamlar o'rtasida keng tarqalib, epidemiyani yuzaga keltirishi mahalliy va xalqaro miqyosda sog'liqni saqlash tizimiga muammo bo'lishi mumkin. Jarrohlik amaliyotlari, organ ko'chirish, kimyoterapiyada infeksiyalarning oldini olish qiyinlashadi.

Hozirgi paytda yangi antibiotik kashf etish dunyo tibbiyotida katta muammoga aylan-yapti. Bu pnevmoniya yoki boshqa yallig'lanish kasalliklari paydo bo'lganda antibiotiklarga samara bermasligi ehtimoli juda ham katta degani. Bu esa bemorni saqlab qololmaslikka olib kelishi mumkin.



— bular antibiotiklarni pala-partish qo'llash oqibatida yuzaga kelyapti.

Shamollashni dorisiz davolash oson bo'lmasligi mumkin, chunki uni keltirib chiqaradigan turli viruslar mavjud. Ammo shifokor bilan maslahatlashgan holda kasallikni antibiotiksiz, tabiiy yo'l bilan yengishga harakat qilish lozim. Immunitetni qo'llab-quvvatlash, to'g'ri ishlagan yordam berish uchun vitaminlar, minerallar, o'tlar va immuniteni oshiruvchi boshqa qo'shimchalardan foydalanilisa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Antibiotiklar viruslarga ta'sir qilmaydi. Virusli infeksiyalarni, shamollashda ko'proq suyuqlik, misol uchun, na'matak, asalli choy, sharbat va sho'ruva ichish suvsizlanishning oldini oladi. Tomoqni iliq tuzli yoki iste'mol sodasi solingan suv bilan tez-tez chayish foyda beradi. Ko'proq dam olish tavsiya

— Ilmiy dalillarsiz internet va ijtimoiy tarmoqlardagi "mo'jizaviy tuzalish" haqidagi fikrlarga ishonish kerak emas. Agar reklamada dori "tez", "kafolatlangan" yoki "universal" davolashi va'da qilinsa, bu ehtiyotkorlik bilan yondashish uchun sababdir. To'g'ri, ayrim tavsiyalar malakali shifokorlar tomonidan beriladi. Ba'zan tabiiy, biologik faol qo'shimcha sotuvchilar tavsiyalariga ham ko'zimcha tushadi. Ammo shifokor ko'rigi va nazoratizis turli tavsiyalardan foydalanish o'rini emas. Bu bemorning ahvolini og'irlashtirib qo'yishi mumkin.

Ayniqsa, keyingi paytda ijtimoiy tarmoqlarda tana vaznini kamaytirish bo'yicha shubhali reklamlar ko'payib ketdi. Ana shu targ'ibotlarga ishonib tekshirilmagan muolajalarni olayotgan, natijada og'ir ahvolda tushib qolayotgan



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TULIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

